

ТИЛ ТАРИХИ • МАНБАШУНОСЛИК • МУМТОЗ МАНБАЛАР ТИЛИ • ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ
ТЕРМИНОЛОГИЯ • ОНОМАСТИКА • УСЛУБШУНОСЛИК • ДИАЛЕКТОЛОГИЯ • МОРФОЛОГИЯ ВА СИНТАКСИС
СОЦИОЛИНГВИСТИКА • ПСИХОЛИНГВИСТИКА • ПРАГМАЛИНГВИСТИКА • ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ
КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ • ТИЛ УРГАНИШ – ДАВР ТАЛАБИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

ЛИНГВИСТ

ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТУПЛАМИ

VI

МУНДАРИЖА

Сўзбоши.....	3
ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ, ТЕРМИНОЛОГИЯ. ОНОМАСТИКА. УСЛУБШУНОСЛИК. ДИАЛЕКТОЛОГИЯ	
Лексико-генетические особенности узбекской терминологии	4
Семантик тараққийёта ички омиллар ва ижтимоий-маданий муносабатлар ифодаси	10
Баъзи топонимларнинг этимологик таҳлили	15
«Қадимги туркий тил луғати» ва ундаги «Девону луғотит турк»га оид маълумотлар	19
«Қисаси Рабғузий»даги орнитонимлар	23
«Луғати туркий»даги лексемаларнинг фонетик хусусиятлари	29
Ўзбек хужжатларида мазмуний ва лисоний муносабат	31
Терминологияда морфологик тежамлилиқ	34
«Qutadg'ū bilig» matnidagi antonimlarning semantik, badiiy xususiyatlari	38
Ит сўзининг этимологиясига доир баъзи мулоҳазалар	47
«Дунёнинг ишлари» қиссасида фразеологизмларнинг ифода хусусиятлари	49
«Xalq so'zi»da bank-moliya sohasidagi o'zlashmalar	51
<u>Frazeologizmlarda metaforaning qo'llanishi</u>	53
Ислом шоир услубига хос айрим эпитетлар ҳақида	56
Музейшуносликка доир сўзлар этимологияси	62
Xalq dostonlari tilidagi dialektal frazeologizmlar	65
Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида парранда ва ҳашаротлар эталонли ўхшатишлар	68
Случай синонимии в публицистическом стиле	72
Abdulla Qodiriy romanlarining til va uslubiy xususiyatlari	74
Семема ва нутқий маъно муносабатига доир	77
Ўзбек тилидаги айрим ўзлашма сўзлар хусусида	79
Publitsistik evfemizmlarning mavzuiy tasnifi	82
Turk va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklar	84
Сўз маъноларининг лексикографик талқинига доир	87
Dialektlarining adabiy tilga ta'siri	91

МОРФОЛОГИЯ ВА СИНТАКСИС

Маскан отларининг шеърий матнларда бадий санъат ҳосил қилиш имконияти	94
Ўзбекча аграмматик спонтан нутқда боғлама ва феъл	

**O'razova I.,
O'zMU magistranti**

FRAZEOLOGIZMLARDA METAFORANING QO'LLANISHI

Frazeologizmlar alohida rasmiylashgani, tarkibining barqarorligi, yaxlitligicha qo'llanishi, tayyor holda mavjudligi, obrazlilik, semantik qayta shakllanishi bilan boshqa til birliklaridan farq qiladi. Frazemalardagi eng muhim belgi, o'ylashimizcha, uning obrazlilikidir. Ayni shu obrazlilik ma'no ko'chishiga asoslanadi.

Metafora ma'no ko'chishining eng keng tarqalgan va faol turidir. Metafora «hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslangan ko'rinishidir».⁵² M.Mirtojiyevning qayd etishicha, metafora «oddiy metafora, personifikatsiya, sinesteziya kabi turlarga bo'linadi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosiga,

⁵² Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.92.

o'xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentga o'xshatilishiga; sinesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o'xshatilishiga asoslanadi». ⁵³ «Leksikologiyada metafora leksik ma'noni taraqqiy ettiradigan vosita sifatida qaraladi. Frazeologiyada esa metaforaga yangi ma'noni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraymiz». ⁵⁴

Frazeologizmlarni o'rganish jarayonida biz aksariyat frazemalar metaforik ma'no ko'chishiga asoslanganiga amin bo'ldik. Ushbu maqolada biz frazemalarni «til sathiga ko'ra tasnifi asosida» ⁵⁵ tahlil qilamiz. D.Xudoyberganovanning ta'kidlashicha, til sathiga ko'ra metaforalar quyidagicha tasniflanadi:

- a) so'z shaklidagi metaforalar;
- b) so'z birikmasi shaklidagi metaforalar;
- d) gap shaklidagi metaforalar;
- e) mikromatn shaklidagi metaforalar.

Frazeologizmlarda so'z shaklidagi, so'z birikmasi shaklidagi, gap shaklidagi metaforalar keng uchraydi.

Iboralar tarkibida so'z shaklidagi metaforalar asosan ikki xil qolipdagi bog'lanishlarda uchraydi:

- ot + sifat
- ot + fe'l

Aqli raso, beti qattiq, qulog'i og'ir, ko'ngli yarim, ko'ngli buzuq, niyati to'g'ri, joni qattiq kabi somatik iboralar «ot + sifat» qolipidagi frazemalardir. Bunday iboralarning tarkibidagi birinchi so'z o'z ma'no mustaqilligini saqlagan hoida o'zidan keyingi so'zga bog'lanadi. Iboralar tarkibidagi *raso, qattiq, og'ir, yarim, buzuq, to'g'ri, qattiq* kabi so'zlar metaforaning sinesteziya usuli asosida frazeologik ma'noning shakllanishiga asos bo'lmoqda. Masalan, *qulog'i og'ir* iborasi «*gapni yaxshi eshitmaydigan, karroq; kar*» ⁵⁶ ma'nosini ifodalaydi. Frazemadagi *og'ir* so'zining o'z ma'nosi «*vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan; vaznli, vazmin*» ⁵⁷ sememalaridan iborat bo'lib, «*muayyan me'yori buzilgan, me'yorga, talabga javob bermaydigan*» ⁵⁸ hosila ma'nosi sezgi a'zolarimiz his qiladigan belgilarni o'zaro qiyoslash asosida yuzaga kelgan.

Ot + fe'l qolipidagi frazemalarga *olamni buzmoq, haqiqatni bukmoq, amalga minmoq, achchig'i kelmoq, ababini yemoq, aloqani uzmoq, dardini*

⁵³ Ko'rsatilgan asar. – B.96.

⁵⁴ Маматов А.Э. Узбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. – Тошкент, 1999. – Б.136.

⁵⁵ Худойберганова Д. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.50.

⁵⁶ Узбек тилининг изоҳли луғати. Т.3. – Тошкент, 2007. – Б.189.

⁵⁷ Ko'rsatilgan manba. – Б.187.

⁵⁸ Ko'rsatilgan manba. – Б.188.

to'kmoq kabi iboralar kiradi. Bu singari iboralarda ham birinchi so'z o'z ma'no mustaqilligini saqlagan holda o'zidan keyingi so'zga tobelanadi. Hokim so'z vazifasida kelgan fe'llar esa oddiy metafora orqali frazeologik ma'noni shakllantirmoqda.

Bo'yni yo'g'on, jizzasini olmoq, qo'ndoqda tekkan, jo'jani kuzda sanamoq, arqonni ustiga tashlab qo'yimoq, diydasi ustida saqlamoq, oyog'idan tortmoq, bir cho'qishda qochirmoq, qo'ltig'iga suv purkamoq, bo'yiga qarab to'n bichmoq, bir yostiqa bosh qo'yimoq kabi frazemalar so'z birikmasi shaklida bo'lib, ular tarkibidagi barcha so'zlar o'z ma'no mustaqilligini yo'qotib, yaxlit holda metafora usuli orqali yangi ma'noni shakllantiradi. Masalan, *bir cho'qishda qochirmoq* iborasining shakllanishiga xalq orasida keng tarqalgan xo'roz urishtirishdagi protativ vaziyat (kuchli xo'rozning raqibini bir hamladayoq qochirishi) sabab bo'lgan. Bu so'z birikmasining o'z ma'nosi bo'lib, ikkinchi ma'no ko'chma ma'no sanaladi va qayta baholash natijasida frazeologik birtiklarning obrazli shakli vujudga keladi. Aynan shu dastlabki so'zlar obrazda o'z izini qoldiradi. Shu tariqa madaniyat bilan aloqador asosiy axborotni aks ettirgan ichki shakl vujudga keladi. Iboradagi ko'chma ma'no oddiy metafora usuli bilan hosil qilinmoqda.

Ola mushuk o'tmoq, oy-kuni to'lmoq, beli bog'liq, tuprog'i bir yerdan olingan, bir to'ni ikki bo'lmagan, burni ko'tarilmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, kapalagi uchmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, og'zi qulog'ida, qo'yi mingga yetmoq kabi iboralar tarkiban gap shaklida bo'lib, metafora usuli orqali frazeologik ma'no shakllanmoqda. Masalan, *tuprog'i bir yerdan olingan* iborasi ega – hol kesim qolipidagi gap bo'lsa-da, ibora tarkibi yaxlitlangan holda «bir-biriga o'xshash»⁵⁹ hosila ma'nosini anglatmoqda. Bizning fikrimizcha, bu iboraning shakllanishiga xalq orasida tarqalgan odamning loydan yaratilgani haqidagi diniy qarash asos bo'lgan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- frazeologizmlarda metafora usuli bilan ma'no ko'chishi juda keng qo'llanadi;
- frazeologizmlar tarkibida so'z shaklidagi, so'z birikmasi shaklidagi, gap shaklidagi metaforalar uchraydi;
- frazeologizmlarda mikromatn shaklidagi metaforalar qo'llanmaydi;
- frazemalar mazmunida ko'chma ma'no bilan birgalikda shu xalqqa xos milliy, madaniy ma'lumotlar, an'ana va qadriyatlar o'z aksini topadi. Ularni topish, tahlil qilish, keng miqyosda o'rganish bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir.

⁵⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. – Б.269.